

## DUNYO HAMJAMIYATI IQTISODIYOTINI GLOBALLASHUVI VA BAYNALMINALLASHUVINING BOSQICHLARI

*Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali*

*Biznesni boshqarish kafedrasida assistenti*

*Umirzaqova Shaxnoza Akmalovna*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish yo'nalishi talabasi*

**Annotasiya.** Maqolada jahon iqtisodiyoti globallashuvi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va shart-sharoitlari, uning baynalminallashuvini bosqichlari hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyaning turlari ilmiy-nazariy jihatdan mukammal asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar.** kooperasiya, integrasiya, baynalminallashuv, intellektual mulk, yangi kapitalistik iqtisodiyot, mehnat migratsiyasi, kapital migratsiyasi, mintaqaviy integrasiya.

XIX-asrning oxirida boshlangan va XX-asr davomida evolyusiyali rivojlangan hamda XXI-asrning dastlabki o'n yilliklarida jahon xo'jaligi rivojlanishining asosiy jarayonlaridan biri hisoblangan globallashuv – bu progressiv globallashuv bo'lib, u jahon iqtisodiy hayotining baynalmilalla- shuvini sifat jihatidan yangi bosqichidir.

Ko'pchilik mutaxassislarining, mamlakatlar aholisining aksariyatini globallashuvga munosabati juda noaniq va ba'zan diametrik ravishda qarama-qarshidir. Bu globallashuv jarayonlarining oqibatlariga turlicha qarashlar bilan bog'liq bo'lib, bunda ba'zilar jahon xo'jalik tizimiga jiddiy xavf tug'dirsa, boshqalari iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi vositasi sifatida qaraydi. Shubhasiz, globallashuvning ijobiy natijalari va salbiy oqibatlari bo'lishi mumkin, ammo unga boshqa muqobil yo'l yo'q.

Ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasi, xalqaro mehnat taqsimoti, tashqi savdo va umuman xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning o'zaro aloqalari hamda bir biriga bog'liqligi kuchaymoqda va ularning normal rivojlanishini tashqi omillar ta'sirini hisobga olmasdan turib aniqlab bo'lmaydi. Bu jarayonlar iqtisodchilar tilida odatda, iqtisodiy hayotning baynalmilallashuvi deb ataladi va biz endi ushbu konsepsiyani umumiy ta'rifini berishingiz mumkin:

Iqtisodiy faoliyatning baynalmilallashuvi - bu alohida mamlakatlar iqtisodiyotining aloqalari va o'zaro bog'liqligini kuchayishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning milliy xo'jaliklarga ta'siri, mamlakatlarning jahon xo'jaligidagi ishtirokidir.

Kishilik jamiyati va jahon iqtisodiyotini rivojlanishida iqtisodiyotning baynalmilallashuvi bir qancha bosqichlarni bosib o'tdi. Dastlab bu xalqaro iqtisodiy hamkorlik edi va u birinchi navbatda muomala sohasiga ta'sir ko'rsatdi hamda XVIII–XIX-XX asrlarda xalqaro(jahon) bozorning vujudga kelib rivojlanishi va kuchayishi bilan

bog'liq edi. Ayniqsa, XIX-asr oxiri va XX asrda kapitalning xalqaro harakati va xalqaro iqtisodiy hamkorlik tez rivojlanib kengayib bordi..

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik deganda mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi barqaror iqtisodiy aloqalarni rivojlanishi, takror ishlab chiqarish jarayonlarini milliy chegaralardan tashqariga kengayishi tushuniladi.

Keyingi bosqich xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, kapitalning baynalmilallashuvi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning global xarakteri va milliy iqtisodiyotlarning ochiqlik darajasi hamda savdo erkinligining oshishi bilan obyektiv ravishda shartlangan xalqaro iqtisodiy integrasiyadir. Lotin tilidan tarjimada integrasiya (integratio) alohida qismlarni umumiy, yaxlit, yagonaga tizimga bog'lanishini anglatadi.

Xalqaro iqtisodiy integrasiya - milliy xo'jaliklarning o'zaro iqtisodiy aloqalarini rivojlanishi, bir biriga yaqinlashishi va o'zaro moslashuvi hamda ularni xalqaro miqyosda yagona takror ishlab chiqarish jarayoniga kirishidir.


Xalqaro iqtisodiy integrasiyani alohida milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti, chuqur barqaror munosabatlarni rivojlanishi orqali turli darajadagi va turli shakllardagi o'zaro ta'siri asosida mamlakatlarning iqtisodiy birlashuvi jarayoni sifatida tavsiflash mumkin.

Xalqaro iqtisodiy integrasiya jahon iqtisodiyoti rivojlanishining ancha yuqori, samarali va istiqbolli bosqichi bo'lib, iqtisodiy aloqalarni baynalmilallashuvining sifat jihatidan yangi va yanada murakkab bosqichidir. Bu bosqichda nafaqat milliy iqtisodiyotlarning yaqinlashishi, balki iqtisodiy muammolarni birgalikda hal etilishi ham ta'minlanadi. Binobarin, iqtisodiy integrasiyani davlatlararo shartnomalar shaklini olgan va davlatlararo organlar tomonidan muvofiqlashtirilgan tarzda tartibga solinadigan iqtisodiy mexanizmlarning yaqinlashuviga olib keladigan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'zaro hamkorlik jarayoni sifatida ifodalash mumkin.

Iqtisodiy integrasiya, xususan, quyidagilarda ifodalanadi:

- turli mamlakatlar milliy xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlik va ularni to'liq yoki qisman birlashuvi;
- ushbu mamlakatlar o'rtasida tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi harakati yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etilishi;
- yagona (umumiy) bozorni shakllantirish maqsadida har bir alohida mamlakatlar milliy bozorlarining yaqinlashishi;
- turli davlatlarga mansub xo'jalik yurituvchi subektlar o'rtasidagi tafovutlarni yo'qolishi;
- har bir milliy iqtisodiyotda xorijiy hamkorlarga nisbatan kamsitishning har qanday shaklining yo'qligi va boshqalar.

Iqtisodiy integrasiya jarayonlari ham ikki tomonlama, ham mintaqaviy yoki global asosda amalga oshmoqda. Hozirgi vaqtda integrasiya birlashmalarining o'ziga xos xususiyati sifatida ularning mintaqaviy darajada rivojlanishini aytish mumkin: umummilliy va davlatlararo davlat organlariga ega yaxlit hududiy iqtisodiy komplekslar yaratilmoqda. Hozirgi bosqichda xalqaro munosabatlarning butun tizimida chuqur o'zgarishlar ro'y bermoqda. Globallashuv ularning muhim xususiyatiga aylanib bormoqda. Sxematik tarzda, iqtisodiy integrasiya va globallashuvga olib keladigan jarayonlar 1-rasmda ko'rsatilgan o'zaro bir biriga bog'liq zanjir tarzida ifodalanishi mumkin. Rasmda ko'rsatilgan bosqichlar, shubhasiz, biroz soddalashtirilgan holda jahon iqtisodiyotini baynalminallashuv jarayonini tavsiflaydi. Aslida, bu bosqichlarni sof shaklda ajratib ko'rsatish juda qiyin, faqat ma'lum tendensiyalarni aniqlash mumkin va ular o'rtasida, shubhasiz, to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqalar ham mavjud. Shunday qilib, globallashuvni qaytarilmas va obyektiv jarayon sifatida tavsiflaganda, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining ma'lum vaqt oralig'idagi dinamikasiga xos aniq rivojlanish tendensiyalarni nazarda tutamiz. Ushbu rasm(1) "Iqtisodiy hayotning baynalminallashuvi", "ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi", "xalqaro mehnat taqsimoti", "xalqaro iqtisodiy hamkorlik", "xalqaro iqtisodiy integrasiya", "jahon iqtisodiyotini globallashuvi" tushunchalarini farqlashga harakat qilish maqsadida taqdim etilgan.



1-rasm. Iqtisodiy faoliyatni baynalminallashuvining bosqichlari.

Globallashuv jahon iqtisodiyoti baynalminallashuvining eng yuqori bosqichidir. Iqtisodiy integrasiya, uning negizini tashkil etuvchi globallashuv jarayoniga juda mos tushadi va globallashuvning o'zi baynalminallashuvning yuqori bosqichi, uning keyingi rivojlanishi

bo'lib, uzoq vaqt davomida to'planib kelayotgan miqdoriy o'zgarishlar uni yangi sifat darajasiga ko'tarilishiga olib keldi. Jahon iqtisodiyoti ko'pchilik TMKlar uchun yagona bozorga aylanib bormoqda va bundan tashqari, aksariyat mintaqalar doirasida birlashgan mamlakatlar ularning faoliyati uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratib bermoqdalar.

Globallashuv zamonaviy jahon iqtisodiy tizimini eng muhim real xususiyatiga, kishilik jamiyatlarini rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi eng ta'sirchan kuchlardan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro munosabatlarning globallashuvi - bu xalqaro munosabatlar tizimidagi jamiyat hayoti va faoliyatining turli sohalarini o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini kuchayishidir. U ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalariga, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, mafkura, ijtimoiy soha, madaniyat, ekologiya, xavfsizlik, turmush tarzi va shuningdek, insoniyatning yashash sharoitlariga

ham bevosita ta'sir qiladi. Tuziladigan va amalga oshirilayotgan tashqi bitimlar sonining ko'payishi natijasida, milliy ishlab chiqarish va moliyaviy tuzilmalarni o'zaro bog'liqligi tufayli global rivojlanish jarayonlari tezlashadi. Jahon iqtisodiyotining barcha mintaqa va tarmoqlarini qamrab olgan globallashuv, milliy iqtisodiyotlar rivojlanishining tashqi va ichki omillari o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni tubdan, globallashuv foydasiga o'zgartiradi. Hozirgi paytda, hych bir milliy iqtisodiyot, o'zining kattaligidan (katta, o'rta, kichik) yoki rivojlanish darajasidan (rivojlangan, o'sib borayotgan, yangi sanoatlashgan yoki sanoatlashayotgan, rivojlanayotgan yoki o'tish davridagi) qat'i nazar, mavjud ishlab chiqarish omillari, texnologiyalar va kapitalga asoslangan xujaliksiz o'zini o'zi ta'minlay olmaydi. Hych bir davlat jahon xo'jalik faoliyatining asosiy ishtirokchilarini ustuvor yo'nalishlari va harakatlari normalarini hisobga olmasdan turib, iqtisodiy rivojlanish strategiyasini oqilona shakllantirish va amalga oshirishga qodir emas.

Garchi "globallashuv" tushunchasi so'nggi paytlarda iqtisodiy adabiyotlarda eng ko'p uchraydigan atama bo'lsa-da, u hali ham muayyan konseptual va amaliy jihatdan to'liq ravshanlikdan ancha uzoqdir. Ko'pchilik g'arb iqtisodchi olimlari globallashuv jarayonlarini biroz noaniq baholamoqdalar. Bu yerda faqat ikkita nuqtai nazarni misol tariqasida keltirish mumkin. Kaliforniya universitetining (AQSh) sosiologiya professori M. Kastels globallashuvni "yangi kapitalistik iqtisodiyot" deb ta'riflab, uning asosiy belgilari sifatida axborot, bilim va axborot texnologiyalarini, ishlab chiqarishning unumdorligi va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy manbalari deb hisoblaydi. Bu yangi iqtisodiyotni u avvalgidek, alohida korporasiya yoki firmalar sifatida emas, balki ustuvor ravishda boshqaruv(menejment), ishlab chiqarish va taqsimlashning tarmoq tuzilmasi orqali tashkil etiladigan global tizim deb hisoblaydi

Bir qator mutaxassislar globallashuvni ancha tor tushuncha sifatida ifodalaydilar: iste'molchilarning xohish-istaklarining yaqinlashishi va butun dunyo bo'ylab taklif etilayotgan mahsulotlar assortimentini universallasuvi jarayonlari natijasida global tizimda yaratilgan mahsulotlar mahalliy mahsulotlarni o'rnini bosadi va almashtiradi deb hisoblaydilar.

Bizni nazarimizda, jahon iqtisodiyotining globallashuvini, uning turli sohalarini o'rtasidagi o'zaro aloqalari va bog'liqligini hamda o'zaro ta'sirining kuchayishi, jahon iqtisodiyotini bosqichma-bosqich tovarlar, xizmatlar, kapital, mehnat va bilimlarning yagona bozorga aylanishida ifodalash mumkin.

Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining turli sohalarini qamrab oladi, xususan:

- tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar, intellektual mulk obyektlari bilan xorijiy, xalqaro, jahon savdosini;
- ishlab chiqarish omillarining xalqaro harakatini (mehnat, ishchi kuchi), kapital, informasiya(axborot) tizimini;
- xalqaro moliya-kredit va valyuta operasiyalarini (beg'araz moliyalashtirish va yordam, xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlarining kreditlari va qarzlari, qimmatli qog'ozlar, maxsus moliya mexanizmlari va vositalari bilan operasiyalarni, valyuta bilan operasiyalarni);
- ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, texnologik, muhandislik va axborotlar almashuvi bo'yicha hamkorlik ko'lamini;
- Globallashuvning chuqurlashuvi, birinchi navbatda, ilgari bo'lganidek, ayirboshlash emas, balki ishlab chiqarishni baynalmilallashuvidir. Ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi dunyoning

ko'pgina mamlakatlari ishlab chiqaruvchilarining turli shakllarda va turli bosqichlarda pirovard mahsulotni yaratishda ishtirok etishida namoyon bo'ladi. Oraliq va yarim tayyor mahsulotlar bilan jahon savdosi va korporasiyalararo transferlarning ortib borayotgan ulushini egallamoqda. Ishlab chiqarishni baynalmilallashuvining institusional shakli – bu TMKlardir;


- mamlakatlar o'rtasida kapitalning xalqaro harakatining o'sishidan, birinchi navbatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar shaklida (va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi tashqi savdo va ishlab chiqarishga nisbatan tezroq o'sib bormoqda), bu esa fond bozorini baynalminallashuvining chuqurlashuvidir ;

- ishlab chiqaruvchi kuchlarni ishlab chiqarish vositalari va ilmiy- texnikaviy, texnologik bilimlarni ayirboshlash orqali, shuningdek, xalqaro ixtisoslashuv va kooperasiya shaklida iqtisodiy birliklarni yaxlit ishlab chiqarish va iste'molchi tizimlariga bog'lash orqali globallashuvni;

- ishlab chiqarish kooperasiyasi, ishlab chiqarish resurslarining xalqaro harakati orqali;

- xalqaro hamkorlikni amalga oshirishni ta'minlovchi global moddiy, axborot, tashkiliy va iqtisodiy infratuzilmani shakllanishi orqali;

- xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashuvi, moddiy ne'matlar bilan an'anaviy xalqaro savdo ko'lamini oshishi va uning xarakterini sifat jihatdan o'zgarishi asosida ayirboshlashni baynalmilallashuvini kuchayishi. Xalqaro hamkorlikning tobora muhim yo'nalishiga aylanayotgan soha - bu moddiy ishlab chiqarish sohasiga qaraganda tezroq rivojlanayotgan xizmat ko'rsatish sohasini;



2-rasm. Jahon iqtisodiyoti globallashtirishning tarkibiy qismlari.

• xalqaro mehnat migratsiyasi ko'lamini oshib borishi. Nisbatan qashshoq mamlakatlardan kelgan odamlar rivojlangan mamlakatlarda malakasiz yoki past malakali ishchi sifatida ish topadilar. Shu bilan birga, mehnat bozorida past malakali va kam maoshli ish o'rinlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bo'shliqlarni to'ldirish uchun chet el ishchi kuchidan foydalanadigan davlatlar immigratsiyani ma'lum chegaralarda saqlashga harakat qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalari ushbu sohada yangi imkoniyatlarni ochib beradi va immigratsiya jarayonlarini osonroq cheklash imkonini beradi. Yevropa, Shimoliy Amerika yoki Yaponiyadagi har qanday kompaniya, masalan, kompyuter ishlarini bajarishni boshqa mamlakatda joylashgan pudratchiga bema'lol ishonib topshirishi va darhol o'z ofisida tayyor ishni olishi mumkin;

• ishlab chiqarish va iste'molning atrof-muhitga ta'sirini ortib borayotganligini baynalminallashuvi, bu zamonamizning global muammolarini hal qilishga qaratilgan xalqaro hamkorlikka bo'lgan ehtiyojni oshiradi.

Yaqin kelajakda globallashtirish jarayonlarini quyidagilarga olib kelishi taxmin qilinmoqda:

- mintaqaviy integratsiya jarayonlarining faollashuviga;
- iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish hali to'liq amalga oshirilmagan davlatlar iqtisodiy tizimlarining yanada ochiqligiga;
- barcha ishtirokchilarning istalgan bozorlarga to'siqsiz kirishiga;



- savdo va moliyaviy operasialarni amalga oshirish qoidalari va qoidalarini universallashtirishga;
- bozorlarni tartibga solish va nazorat qilishni unifikatsiya qilinishiga;
- kapitalning harakati, investisiyalash jarayonlarini va global to'lov hamda hisob-kitob tizimiga qo'yiladigan talablarni standartlashtirishga.
- Globallashtirish va integratsiya ko'p darajali jarayondir:
- mintaqaviy, milliy iqtisodiyot, ya'ni makro darajada;
- tovar, moliya va valyuta bozorlari, mehnat bozorlari, ya'ni mezo- darajada;
- individual kompaniyalar(mikro) darajasida.

Makroiqtisodiy darajada globallashtirish davlatlar va integratsiya birlashmalarining savdoni liberallashtirish, savdo va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etish, erkin savdo zonalarini yaratish va boshqalar orqali o'z chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, globallashtirish va integratsiya jarayonlari dunyoning yirik mintaqalarida jahon iqtisodiy bozori (iqtisodiy, huquqiy, axborot, siyosiy) makonini maqsadli shakllantirish bo'yicha davlatlararo muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Mikroiqtisodiy darajada globallashtirish kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashqarida kengayishida namoyon bo'ladi. Eng yirik transmilliy korporatsiyalarning aksariyati global miqyosda faoliyat yuritishi kerak: iste'mol darajasi yuqori bo'lgan har qanday hudud ularning bozoriga aylanadi, ular mintaqaviy birlashmalar va milliy davlatlar chegarasidan qat'i nazar, hamma joyda iste'molchilar talabini qondira olishi kerak. Kompaniyalar xaridorlar, texnologiyalar, xarajatlar, ta'minot, strategik ittifoqlar va raqobatchilar to'g'risida global nuqtai nazardan o'ylashadi. Chunki ularning, mahsulotlarni loyihalash, ishlab chiqarish va sotishning turli bo'g'inlari va bosqichlari xalqaro miqyosda birlashgan turli mamlakatlarda joylashgan. Transmilliy firmalarni yaratish va rivojlantirish transport ta'minoti, narxlar, takror ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar, bozor kon'yunkturasini yaxshiroq hisobga olish, foydani samarali qo'llash va boshqa imkoniyatlardan foydalanish orqali ko'plab to'siqlarni chetlab o'tish imkonini beradi.

TMKlar (ayniqsa, ko'p millatli va global) uchun tashqi iqtisodiy faoliyat ko'p hollarda ichki operasialardan muhimroq ekanligini hisobga olsak, ular globallashtirish jarayonlarining asosiy subyekti bo'lib hisoblanadi. Transmilliy korporatsiyalar – bu globallashtirishning tayanchi, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkin va samarali tadbirkorlik faoliyati uchun jahon xo'jaligining yagona global iqtisodiy, huquqiy, axborot, madaniy makonni shakllanishi, tovarlar va xizmatlar, kapital, ishchi kuchi, iqtisodiy konvergentsiyaning yagona butunjahon bozorini yaratish va alohida mamlakatlarning yagona jahon xo'jalik majmuasiga birlashishi eng dolzarb ehtiyojdir.

To'g'ri, katta ehtimol bilan, biz hatto o'nlab yillar ichida ham haqiqiy global bozorga chiqish olmaymiz va bu turli siyosiy sabablarga ko'ra to'liq amalga oshirilmasligi mumkin. Xalqaro savdo tartiblarining universallashtirish va xalqaro kapitalning harakati hali bir xil iqtisodiy muhitni, yagona butunjahon iqtisodiy makonni yaratishga olib kelmadi. Jahon iqtisodiyoti polisentrik(yarim markazlashgan) tuzilma bo'lib, u 197 ta milliy-davlat tuzilmalarini o'z ichiga oladi va ularning rivojlanishi juda ham notekis. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining yarmiga yaqini xalqaro iqtisodiy munosabatlarning o'sishi va kuchayishiga ta'sir qilmaydigan yopiq iqtisodiyotda yashaydi.

Jahonda bir-biriga parallel bo'lgan ikkita dunyo mavjud: xalqaro va o'zini o'zi ta'minlaydigan iqtisodiyot, ulardan birining (o'zini o'zi ta'minlaydigan iqtisodiyot) hajmi va ahamiyati asta-sekin jahon iqtisodiyotida kichrayib bormoqda. Ushbu tuzilmaning qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar va o'zaro bog'liqliklar assimetrikdir, turli mamlakatlar guruhlarini jahon integrasiya jarayonlariga bir xil bo'lmagan notenglik darajasida jalb qilindi.

Global iqtisodiy makonni sanoatlashuv davrining boshlanishi bilan taqqoslaganda mamlakatlar o'rtasidagi texnologik tafovutning kengayishi tufayli sezilarli darajada xilma-xil (bir xil emas) bo'lib qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda to'rtinchi va beshinchi texnologik ukladlar (xo'jalik yuritish shakllari) ustunlik qiladi, o'rtacha rivojlanish darajasidagi mamlakatlarda - uchinchi va to'rtinchi ukladlar, jahonning chekka mamlakatlarida esa sanoatlashuv davrigacha bo'lgan texnologiyalar saqlanib qolmoqda. Shu asosda yetakchilikni qo'lga kiritgan, eng samarali texnologiyalardan foydalanadigan, fan sig'imkorligini ko'p talab qiluvchi tovar va xizmatlarni (masalan, kompyuterlar, dasturiy ta'minot, uyali telefonlar, kosmik aloqa xizmatlari va boshqalar) past va o'rta darajada rivojlangan mamlakatlarga maksimal darajada foyda olish maqsadida eksport qilinadi.

Iqtisodiy muhitning, jahon iqtisodiy makonining hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan xilma-xilligi bilan bir qatorda, globallashuv jarayonlarining rivojlanish kelajagi hal qilinmagan muammo bo'lib qolmoqda: ya'ni, globallashuv dunyo yaxlitligining bir xilligi yoki xilma-xilligini oshishiga olib keladimi? - degan masala ko'ndalang turmoqda.

Iqtisodiyotdagi avtonomlashuv va integrasiya jarayonlarining uyg'unligi globallashuvning o'ziga xos xususiyatiga aylanganligini bildiradi. Bu "Neysbitt paradoksi"da aks ettirilgan: "Iqtisodiyotning globallashuv darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning eng kichik ishtirokchilari shunchalik kuchliroq bo'ladi". Dj.Neysbitt, bir tomondan, siyosiy mustaqillik va o'zini o'zi boshqarishga, ikkinchi tomondan, iqtisodiy ittifoqlar tuzishga qaratilgan harakatni qayd etadi.

Binobarin, globallashuvning paradoksi shundan iboratki, jamiyatning ichki aloqalari qanchalik boy va mustahkam bo'lsa, uning iqtisodiy va ijtimoiy mustahkamlanish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi, ichki resurslar qanchalik to'liq amalga oshirilsa, u o'zining integrasiya aloqalari va jahon bozori sharoitlariga moslashish afzalliklaridan shunchalik muvaffaqiyatli foydalana oladi.

Globalashuv jarayonlarining rivojlanishi umumiqtisodiy va tovar ishlab chiqarish qonunlari hamda ular bilan bog'liq ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning evolyusion ta'siri natijasida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va hatto ular bilan shartlangan madaniy shart-sharoitlarda amalga oshadi. Binobarin, zamonaviy globallashuv jarayonlarini belgilovchi quyidagi asosiy shart-sharoitlarni (harakatlantiruvchi kuchlarni) aniqlash mumkin:

1. Ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy va texnologik:
  - ishlab chiqarish ko'lamining keskin o'sishi;
  - ishlab chiqarishning yangi texnologik usuliga – yuqori, fan sig'imkorligini talab qiluvchi texnologiyalarga o'tish;
  - tovarlar, xizmatlar, kapital harakati yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etuvchi yangi texnologiyalarni tez va keng tarqatish;



- transport va aloqa vositalarining sifat jihatidan yangi avlodi va ularni unifikatsiya qilish, tovarlar va xizmatlar, resurslar va g'oyalarni eng qulay sharoitlarda qo'llash bilan tez taqsimlanishini ta'minlash. Hozirgi vaqtda ma'lumotlarni uzatish deyarli kechiktirmasdan amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy imkoniyatlar va bitimlar tezda butun dunyo bo'ylab e'lon qilinadi. Tovarlarni va xizmatlarning ayrim turlari uchun bir joydan ikkinchi joyga borish uchun hali ham bir necha kun yoki hatto haftalar ketadi, ma'lumotlar esa darhol uzatiladi. Agar dunyoning istalgan burchagidagi bozorda sezilarli o'zgarishlar ro'y bersa, u deyarli bir zumda uning boshqa barcha qismlarida ma'lum bo'ladi. Bu, ayniqsa, fond birjalari, valyuta va tovar bozorlaridagi voqyealarga, shuningdek, ilmiy kashfiyotlar va ulardan foydalanishga ta'luqlidir. Binobarin, sheriklarning bir-biridan uzoqligi ularning ishlab chiqarish kooperatsiyasiga hal qiluvchi to'siq bo'lib qolmaydi;

- ilmiy yoki boshqa turdagi intellektual almashinuvlar natijasida bilimlarning tez tarqalishi;

- transportning ilg'or texnologiyalari, telekommunikatsiya xarajatlari hisobiga keskin kamayishi, axborotni qayta ishlash, saqlash va undan foydalanish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish, bu esa milliy bozorlarning global integratsiyalashuviga yordam beradi. Raqamlar haqiqatan ham hayratlanarli. London va Nyu-York o'rtasidagi uch daqiqalik suhbatning narxi (real ko'rinishda) 1930 yildagi 300 dollardan 1998 yilda 1 dollarga tushdi. So'nggi 20 yil ichida (2018 yilgacha) ma'lumotlar birligini kompyuterda qayta ishlash narxi turli mamlakatlarda (real ko'rinishda) 30% gacha pasaydi.

### 2. Tashkiliy:

- sanoat-xo'jalik faoliyatining xalqaro shakllari (TMK): tashkiliy shakllar, ularning doirasi milliy chegaralardan tashqariga chiqadi, xalqaro xususiyat kasb etadi, yagona bozor makonini shakllantirishga yordam beradi;

- ko'p millatli yoki global miqyosda nodavlat tashkilotlarning paydo bo'lishi. BMT, XVF, Jahon banki, JST va boshqalar kabi xalqaro tashkilotlar yangi global rol o'ynay boshladilar;

- transmilliy kompaniyalar va boshqa xususiy va davlat tashkilotlarining global iqtisodiyotning asosiy ishtirokchilariga aylanishi.

### 3. Iqtisodiy:

- tovarlar va xizmatlar savdosini, kapital bozorlarini va iqtisodiyotni boshqa ayrim sohalarini liberallashtirishi proteksionistik siyosatning cheklanishiga olib keldi va jahon savdosini erkinlashtirdi (agar 1947 yilda import bojlari stavkalarining o'rtacha darajasi 50-60% bo'lsa, 90-yillarning boshlarida u 9,6% gacha kamaydi, kelajakda esa Jahon Savdo Tashkiloti uni 3% gacha oshirishni mo'ljallab turibdi;

- kapitalning misli ko'rilmagan konsentratsiyasi (to'planishi va ulkanlashuvi) va markazlashuvi, qo'llanilayotgan moliyaviy-iqtisodiy vositalarning keskin o'sishi, valyutalararo operatsiyalarni amalga oshirish muddatining keskin qisqarishi;

- xalqaro iqtisodiy tashkilotlar tomonidan makroiqtisodiy siyosatning yagona me'zonlarini joriy etilishi, soliq, mintaqaviy, qishloq xo'jaligi, monopoliyaga qarshi siyosat, bandlik siyosati va boshqalarga qo'yiladigan talablarni birlashtirilishi;

- unifikatsiya va standartlashtirish tendensiyasini kuchayishi. Texnologiya, atrof-muhit, moliyaviy tashkilotlar faoliyati, buxgalteriya hisobi va statistik hisobot standartlari tobora ko'proq qo'llanilmoqda.

Ta'lim va madaniyatga tegishli standartlar ham keng tarqalmoqda.

#### 4. Axborot(informasiya) tizimi:

- ishbilarmonlik aloqa vositalarini, ishlab chiqarish, ilmiytexnikaviy, iqtisodiy, moliyaviy ma'lumotlar almashinuvini tubdan o'zgarishi;

- axborotni qabul qilish, uzatish va qayta ishlashning tubdan yangi tizimlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, moliya va tovar bozorlarini, shu jumladan nou-xau va professional xizmatlar bozorlarini birlashtiruvchi global tarmoqlarni yaratish imkonini berdi. Axborot xizmatlari bevosita elektronika yutuqlari bilan - elektron pochta, internetning yaratilishi bilan bog'liq;

- bir markazga turli mamlakatlarda joylashgan ishlab chiqarishni boshqarish imkonini beradigan tizimlarni shakllantirish, ishlab chiqarish, ilmiy-texnikaviy, tijorat muammolarini tez, o'z vaqtida va samarali hal qilish uchun alohida mamlakatlar ichidagidan ko'ra yomonroq bo'lmagan imkoniyatlar yaratiladi. Real vaqt rejimida ma'lumotlar almashinuvi menejment va marketingda, moliyaviy va investisiya oqimlarini boshqarishda haqiqiy inqilobni ko'rsatadi, mahsulot sotishning yangi shakllari (masalan, elektron tijorat) paydo bo'ldi. Kompyuterlashtirish, elektron hisob va plastik kartochkalar tizimlari, sun'iy yo'ldosh va optik tolali aloqa masofa va davlat chegaralaridan qat'iy nazar, moliyaviy ma'lumotlarni deyarli bir lahzada o'tkazish, bitimlar tuzish, mablag'larni bir hisobdan ikkinchisiga o'tkazish imkonini beradi.

#### 5. Siyosiy:

- davlat chegaralarining qat'iyiligini yumshatilishi va osonlashtirilishi, fuqarolarning, tovarlar va xizmatlarning, kapitalning erkin harakatlanishi uchun huquqiy sharoitlarni yaratilishi;

- sovuq urushning tugashi, Sharq va G'arb o'rtasidagi siyosiy tafovutlarni bartaraf etilishi.

#### 6. Ijtimoiy va madaniy:

-ijtimoiy aloqalar baynalminallashuvi va urf-odatlar rolini zaiflashishi, milliy cheklolarni bartaraf etilishi, bu odamlarning hududiy, ma'naviy va psixologik munosabatlardagi harakatchanligini oshiradi, xalqaro migrasiyaga yordam beradi;

- bozor iqtisodiyoti va erkin savdo tizimini baholashda global konsensusning paydo bo'lishi;

- globallashtirish "bir hil" ommaviy axborot vositalari, san'at, popmadaniyatning shakllanish tendensiyasini namoyon bo'lishi;

- Ingliz tili xalqaro muloqot tiliga aylanib, madaniyatlararo muloqot, o'rganish va o'zaro tushunishni osonlashtiradi;

- masofaviy ta'limni rivojlantirilishi tufayli ta'limdagi chegaralarni asta-sekin yengib o'tilishi;

- mehnat resurslarini tayyorlashni liberallashtirilishi, bu esa milliy davlatlarning "inson kapitali"ni takror ishlab chiqarish ustidan nazoratini zaiflashishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, so'nggi o'ttiz yillar davomida(ayniqsa Sovet ittifoqi parchalangandan keyin) eng faol kechayotgan globallashtirish jarayonlari noaniqlik va qarama-qarshiliklarga boy bo'lib, ilmiy va ishbilarmon doiralarda hamda mamlakatlar rahbarlari o'rtasidagi qizg'in bahs-munozaralarga va siyosiy-iqtisodiy muhokamalar mavzusiga aylanib borayotganini alohida ta'kidlashimiz lozim. Zamonamizning ijtimoiy-iqtisodiy haqiqati shundaki, globallashtirish obyektiv va mutlaqo muqarrar hodisa bo'lib, uni iqtisodiy siyosat yordamida sekinlashtirish mumkin. Lekin, bu to'xtatib va bekor qilib bo'lmaydigan jarayondir. Chunki bu zamonaviy jamiyat va ilmiy-texnika

taraqqiyotining muhim talabidir. Shuning uchun ham, jahon iqtisodiyoti tarkibidagi mamlakatlar yangi sharoitlarga moslashishi va jahon iqtisodiyotining baynalmilallashuvi berayotgan imkoniyatlardan to'laroq foydalanish uchun globallashev jarayonlarga muvofiq tarzda munosabatda bo'lishlari zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Dolgov S.I. Globalizasiya ekonomiki: novoye slovo ili novoye yavleniye? — M.: OAO «Izd-vo «Ekonomika», 1998, S. 171.
2. Kox R. Menedjment i finansy ot A do Ya. — SPb: Izdatelstvo «Piter», 1999. — S. 65.
3. Ivanov N. Globalizasiya i problemy optimalnoy strategii razvitiya. //Mirovaya ekonomika i mejdunarodnyye otnosheniya. — 2000. — №— S. 15
4. Ivanov N. Globalizasiya i problemy optimalnoy strategii razvitiya.//Mirovaya ekonomika i mejdunarodnyye otnosheniya. — 2000. — №2. — S. 18.
5. Postindustrialnyy mir i prosessy globalizatsii. //Mirovaya ekonomika i mejdunarodnyye otnosheniya. — 2000. — № 3. — S. 91.
6. Martin G.P., Shumann X. Zapadnya globalizatsii: ataka na prosvetaniye i demokratiyu/Per. snem. — M.: Izdatelskiy dom «ALPINA», 2001, S.20.
7. Martin G.P., Shumann X. Zapadnya globalizatsii: ataka na prosvetaniye i demokratiyu/Per. snem. — M.: Izdatelskiydom «ALPINA», 2001, S. 52—53.
8. Vaxabov A.V., Tadjibayeva D.A., Xajibakiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. — Toshkent.: Baktriya press, 2015. -584 b.
9. K seredine veka 68% naseleniya planety budet jit v gorodax [Elektronnyy resurs]. Organizasiya Obyedinennykh Nasiy, Departament po ekonomicheskim i sosialnym voprosam. — Nyu-York. — May 2018y.
10. Byerkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullayeva M.K., Raximov J.M. “Global iqtisodiyot” (O'quv qo'llanma), - T.: TDIU, 2019 y. 232 –byet.